

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

JIZZAX VILOYAT PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA
O‘RGATISH MILLIY MARKAZI

“INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FAN, TA’LIM VA
ISHLAB CHIQUYRISH INTEGRATSIYASINI TA’MINLASH: MUAMMO
VA YECHIMLAR”

Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi

(2024-yil, 15-iyun)

MATERIALLARI

“PROVIDING THE INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND
WORK ON THE BASE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES: PROBLEMS
AND SOLUTIONS”

International scientific and practical online conference

(June 15, 2024 y) MATERIALS

«ОБЕСПЕЧЕНИЕ ИНТЕГРАЦИИ НАУКИ, ОБРАЗОВАНИЯ И
РАБОТЫ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ:
ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ»

Международная научно-практическая онлайн-конференция

(июня 15, 2024 г)

МАТЕРИАЛЫ

Jizzax - 2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**JIZZAX VILOYAT PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA
O‘RGATISH MILLIY MARKAZI**

**“INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FAN, TA’LIM VA
ISHLAB CHIQUARISH INTEGRATSIYASINI TA’MINLASH: MUAMMO VA
YECHIMLAR”**

**Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi
(2024-yil, 15-iyun)
MATERIALLARI**

**“PROVIDING THE INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND
WORK ON THE BASE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES:
PROBLEMS AND SOLUTIONS”**

**International scientific and practical online conference
(June 15, 2024 y)
MATERIALS**

**«ОБЕСПЕЧЕНИЕ ИНТЕГРАЦИИ НАУКИ, ОБРАЗОВАНИЯ И
РАБОТЫ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ:
ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ»**

**Международная научно-практическая онлайн-конференция
(июня 15, 2024 г)
МАТЕРИАЛЫ**

JIZZAX – 2024

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati tomonidan professional va oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar hamda navbatdagi ustuvor vazifalar to'g'risida o'tkazilgan majlisning bayoni ijrosini o'z vaqtida va samarali bajarish maqsadida, *O'zbekiston Respublikasining Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 16-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida 2024-yilda Xalqaro va Respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasiga asosan, Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazida 2024-yil 15-iyun kuni "Innovatsion texnologiyalar asosida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash: muammo va yechimlar" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.*

Mazkur konferensiyaning tashkil etishdan maqsadimiz tadqiqotchilarning, soha mutaxassislarining, ta'lim sohasida ishlayotgan pedagoglarning ilm-fanni rivojlantirish borasidagi islohotlarini muvaffaqiyatli qilish, dolzarb masalalarni hal qilishning samarali usullarini ishlab chiqishga taklif etishdir. Biz uchun muloqot, tajriba almashish va hamkorlik muhim.

The purpose of organizing this conference is to discuss the reforms in this field of science among researchers, specialists in the field, teachers working in the field of education in the development of science, to invite them to develop effective ways to address pressing issues. Communication, exchange of experience and cooperation in this area are important for us

Наша цель, организации данной конференции - обсудить реформы исследователей, специалистов в данной области, учителей, работающих в сфере образования, в развитии науки, предложить им разработать эффективные способы решения актуальных проблем. Для нас важно общение, обмен опытом и сотрудничество

Tahrir hay'ati:	
A.Sh.Xolmurodov	Jizzax viloyati PYMO-MM direktori, p.f.d., (DSc)
Sh.D.Abdurashidov	Jizzax viloyati PYMO-MM direktor o'rinbosari
J.A.Mardonqulov	"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasini mudiri, p.f.f.d., (PhD)
A.Meliboyev	"Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari" kafedrasini mudiri, p.f.n., dotsent
Sh.Haydarov	"Tilarni o'qitish va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasini dotsenti p.f.n.
M.Tilakova	"Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari" kafedrasini mudiri, p.f.f.d., (PhD)
P.Xolmatov	"Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim texnologiyalari" kafedrasini mudiri p.f.n., dotsent
D.K.Norbekov	"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi
M.M.Xolboyeva	"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi
T.Sh.Avazov	"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi
O.U.Ergashev	"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi
Sh.A.Egamqulov	"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi
M.M.Jabborov	"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi
B.N.Qodirov	"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi
F.M.Alimov	"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi

To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning xaqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldirlar.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami Jizzax viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Ilmiy-metodik kengashining 2024-yil 19-iyundagi navbatdan tashqari yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

8. G'anieva D.A., Ratner R.I. "Ta'lim tizimidagi axborot-kutubxona jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish".-T., Yangi asr avlodi, 2013

Elektron ta'lim-tarbiya resurslari

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi: www.uzedu.uz.
2. Toshkent davlat pedagogika universiteti: www.tdpu.uz
3. Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi: www.giu.uz
4. Ijtimoiy axborot ta'lim portali: [www. Ziyounet. uz](http://www.Ziyounet.uz).

TA'LIM VA TARBIYA JARAYONINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Pardaboyeva Madina Farxod qizi

Psi-23/2 guruh talabasi

Ilmiy maslahatchi: ChDPU Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Umarova Sh.A.

ANNOTATSIYA

Tarbiya keng ma'nodagi yoshlarni, insonlarni ob'ektiv va sy'bektiv ta'sirlar orasida axloqiy, aqliy, amaliy, jismoniy shakllanish jarayonidir. Bola o'qishni, tarbiya olishni istaydi, ulg'ayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xohlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalash lozimligini bilish kerak. Shu bilan birga bola o'zini o'zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmash kerak.

Kalit so'zlari: Tarbiya masalasi, ob'ektiv va sy'bektiv ta'sirlar, axloqiy, aqliy, amaliy, jismoniy shakllanish, 'qituvchi - do'st, murabbiy, yo'l boshlovchi, tarbiyachi, ibrat - namuna usuli, ishonitirish, tushuntirish, uqtirish, rag'batlantirish.

АННОТАЦИЯ

Воспитание в широком смысле-процесс нравственного, умственного, практического, физического становления молодежи, людей среди объективных и субъективных воздействий. Ребенок хочет учиться, получать воспитание, взрослеть и активно участвовать в жизни общества. Педагог должен знать, каким способом его воспитывать, в каких условиях взаимоотношений, в каком педагогическом процессе. При этом ребенок не должен забывать и о том, что он является активным участником самоизменения.

Ключевые слова: проблема воспитания, объективные и субъективные влияния, моральное, умственное, практическое, физическое формирование, "друг - Пошечина", тренер, проводник, наставник, метод наглядного примера, убеждение, объяснение, убеждение, поощрение.

ANNOTATION

Upbringing is a process of moral, mental, practical, physical formation of young people, people in a broad sense, among objective and sy'bejective influences. The child wants to study, be brought up, grow up and actively participate in the life of society. It is necessary to know in what way, in what relationship conditions, in what pedagogical process it is necessary to educate the educator. At the same time, the child should not forget that he is an active participant in self-transformation.

Keywords: issue of upbringing, objective and sy'bejective influences, moral, mental, practical, physical formation, 'teacher - friend, coach, guide, educator, lesson - pattern method, persuasion, explanation, encouragement, encouragement.

Har bir inson hayotidagi psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi, ijtimoiy muhit va ta'lim-tarbiyaning roli juda katta ahamiyat kasb etadi. Lekin inson shaxsining tarkib topishi uchun nafaqat bu faktorlar, balki nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning ta'siri ham bor. Insonlarga nasliy yo'l bilan ba'zi xususiyatlar beriladi. Masalan, tananing tuzilishi, ko'z va sochlar rangi, ovozi hamda gapirish uslublari, ayrim hatti-harakatlari

tug'ma ravishda berilishi mumkin. Lekin insonga ta'lim-tarbiya, uning psixik xususiyatlari, bir so'z bilan aytganda, insonning aqliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlar hech vaqt nasliy yo'l bilan berilmaydi. Kamdan kam hollarda musiqa, matematika qobiliyatlarda nasliy yo'l bilan berilishi mumkin. Bunday qobiliyatlarni amalga oshirish uchun ham albatta, ma'lum sharoit taminlanishi kerak. Insonning hayotiy tajribalarni bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga aloqador bir nechta tushunchalar mavjud. Bu o'quv faoliyati, ta'lim o'qish va o'rganishdir. O'quv faoliyatida, asosan, shaxsning psixik jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, uning asosida yangi faoliyatlar yuzaga keladi. O'quv faoliyati insonning butun hayoti davomida namoyon bo'luvchi uzluksiz jarayondir. Rus psixologi A.N.Leontev inson faoliyatining psixik va amaliy shakllari mavjudligini, bola ongi aynan o'quv faoliyatida o'sishini ta'kidlaydi. D.B.Elkonin esa o'quv faoliyatining xususiyatlarini ko'rsatib, uning mohiyati mazmuniga va o'zini namoyon bo'lish shakliga ko'ra ijtimoiyligini ta'kidlaydi. O'quv faoliyati bu shunday faoliyatki,

uning natijasida avvalo o'quvchida o'zgarish yuz beradi. Uning ma'suli turli motivlar asosida qurilgan bo'lishi darkor. Bu motivlar bevosita o'quvchi shaxsining o'sishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lishi kerak. O'quv faoliyati ta'lim, o'qish va o'rganish degan tushunchalar bilan bevosita bog'liqdir. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchi hamkorligidagi o'quv faoliyati, o'qituvchining bilim, ko'nikma va malakalarini o'quvchilarga o'rgatish jarayonidir. Ta'lim jarayoni bevosita muayyan axborotni, xarakatlarni, xulq-atvorning shakllarini o'zlashtirishga qaratilgandir. O'qish va o'rgatish tushunchalari o'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga, o'rgatishga xizmat qiladi.

O'quv faoliyatining besh elementi mavjud: 1. O'quv motivlari. 2. O'quv topshiriqlari. 3. O'quv xarakatlari. 4. O'qituvchining nazorati. 5. O'qituvchining baholashi. O'qitishning emotsionalligi ta'limning muvaffaqiyatlilikini ta'minlovchi omillardan biridir. Ta'lim berish jarayoni emotsional jarayon. Ta'lim jarayoni alohida tashkil etiladigan hamda boshqariladigan faoliyat bo'lib, u o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini tashkil etadi va ularni boshqaradi.

Ta'lim jarayoni besh elementdan iborat:

III Ta'limning maqsadi -- nima uchun o'qitish kerak?

III Ta'limning mazmuni – nimaga o'qitish kerak?

III Ta'limning metodlari, usullari va pedagogik muloqot yo'llari.

III Ta'lim beruvchi.

III O'quvchi.

Ta'lim va ta'lim jarayonida bolaning rivojlanishi muammosi yosh davrlari va pedagogik psixologiya fanining asosiy masalalaridan biridir. Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga ham bog'liq. O'qituvchining roli shundan iboratki, u o'quvchilarga tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolishi kerakligini, nimani butunlay esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani so'zmaso'z esda olib qolishni, nimaning ma'nosini o'z so'zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini ko'rsatib o'tishi lozim. Kuzatishlar ko'rsatadiki, bunday ko'rsatmalar berilmaganda, o'quvchilarda ko'pincha notog'ri tasavvurlar vujudga keladi. O'qitishning emotsionalligi ta'limning muvaffaqiyatlilikini ta'minlovchi omillardan biridir. Ta'lim berish jarayoni emotsional jarayon. Agar o'quvchilarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuyg'u uyg'otmasa, uni o'quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. Gap o'quvchilarning psixik holatlari, ya'ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida ham borishi kerak, albatta. Ulardagi

quvonchli, optimistik kayfiyat o'quv faoliyatini juda samarali qiladi. O'quvchilar emotsional ruhdagi materialni durustroq o'zlashtirib oladilar.

Jamiyatimizdagi mehnat - haqiqiy ijod, quvonch manbai. Maktab o'quvchilarida o'quv mehnatiga ijobiy munosabat uyg'otib, mehnatning haqiqiy ijodga, quvonch manbaiga aylanishiga ko'maklashish kerak. Qadimda greklar juda ajoyib iborani qo'llaganlar: "Talaba -to'ldirilib turilishi kerak bo'lgan idish emas, balki yoqib turilishi lozim bo'lgan mash'aldir". Bu fikrning tagida chuqur ma'no bor. Zero, o'qituvchi ta'lim metodlari: muammoli ta'lim, qisman izlanish metodi va tadqiqot metodlaridan keng qo'llashi kerak. Tarbiya jarayoni ma'lum bir tarbiyachi tomonidan axloqiy va xulqiy fazilatlarini tarkib toptirish, shakllantirish maqsadida tarbiyalanuvchining ongiga tarbiyaviy

ta'sir etish jarayonidir. Tarbiya – bolaning ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishni o'rganishi hamda insonning hayotiy ko'nikma va malakaga ega bo'lishidir. Ta'lim jarayonining markazida shaxsning bilish va anglash jarayoni, uning qobiliyati, ilm o'rganishi yotsa, undan farqli o'laroq tarbiya insonni shaxs sifatida shakllanishiga, uning dunyoqarashi va jamiyatga munosabatiga qaratiladi. Tarbiya--bu alohida jarayon emas, balki o'qitishning bir tomoni bo'lib, u bilan umumiy va farqli tomonlarga egadir. Bilim berish va tarbiyaga, asosan, insonning ijtimoiy ko'nikma olish mexanizmining o'ziga xos jihatlarini kiritish mumkin. Tarbiya jarayonida shaxsning sifati, ijtimoiy xulq-atvori va shakllari nazarda tutilsa, o'qitishda bilim, ko'nikma va malakalari inobatga olinadi.

Tarbiya jarayonining ilmiy asoslari bilan, psixologiyadan tashqari falsafa, sotsiologiya va pedagogika fanlari shug'ullanadi. Psixologiya fanisiz tarbiyaning asosiy muammolari hal qilinib bo'lmagan holda to'g'ri qo'yilishi ham mumkin emas, chunki ularni anglash negizida psixologiya, insoniy munosabatlar, har xil ijtimoiy jamoalar psixologiyasini bilish yotadi. Tarbiyaning ham bosh vazifasi jamiyat hayotida zarur bo'lgan kerakli sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan shaxsni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Har bir odam uchun bo'lganidek, har bir maktab o'quvchisi uchun ham ayrim guruhlar (ba'zan bunday guruh bir kishidan tarkib topgan bo'lishi mumkin) mavjud bo'ladi, u shaxs sifatida bu guruhlarining fikrlari, o'zi uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan muloxazalari bilan hisoblashadi. Oila, sinf, sinfdagi ayrim o'quvchilar ba'zi, o'qituvchilar, ko'chadagi o'rtoqlar, yaqin do'st va hokazolar muayyan maktab o'quvchisi uchun ana shunday referent guruhlar bo'lishi mumkin. Maktab o'quvchisining tez- tez uchrab turadigan tarbiyaviy ta'sirlariga befarq yoki hatto salbiy munosabatda bo'lish hollariga ko'pincha o'quvchining tarbiyachiga ma'lum bo'lmagan referent guruh pozitsiyasida turishi sabab bo'ladi. A.V.Petrovskiyning oqilona fikrga ko'ra agar tarbiyachi, maktab o'quvchisi xech narsa va xech kim ta'sir qila olmaydi, deb da'vo qiladigan bo'lsa, bu narsa odatda tarbiyasining maktab

o'quvchisining axloqiy pozitsiyasini belgilab beradigan ta'sirli referent guruhlardan mutlaqo xabarsiz ekanligini bildiradi. Bolalik va maktab yoshida shaxs tarbiyasining hal qiluvchi ta'siri ostida tarkib topadi. Tarbiya maxsus faoliyat sifatida muayyan dasturning anglab olingan maqsadning mavjudligi bilan ta'sir ko'rsatishning maxsus ishlab chiqilgan va asoslar berilgan vositalari formalari hamda metodlarining qo'llanilishi bilan tasodafiy ta'sirlardan ajralib turadi. A.S.Makarenko alohida ta'kidlab shunday degan edi, „Sog'lom tarbiyaviy vaziyatsiz mukammal shaxs vujudga kelgan yoki aksincha, to'g'ri tarbiyaviy ish olib borilgan paytda buzilgan shaxs tarkib topgan birorta holni bilmayman“. Maktab o'quvchisining muayyan qoidalar va normalarini bilishi ma'naviy xulq-atvorining zarur shartidir. Biroq axloq normalarini shu tariqa bilish o'z-o'zidan axloqiy xulq-atvorini tegishli darajaga erishtirmaydi. Buning ustiga bilimlarni ma'naviy xulq-atvor praktikasiz o'zlashtirib olish ma'naviy bilimlar bilan ma'naviy xulq-atvori o'rtasidagi ajralishda ifodalanadigan axloqiy formalizm deb atalovchi formalizimning yuzaga kelishiga olib boradi.

Tarbiya metodi deb tarbiyachi, murabbiyning tarbiyalanuvchilarida onglilik, iymon, e'tiqod va insoniy xulq –atvor qoida normalarini shakllantirish maqsadida ularga pedagogik- psixologik ta'sir ko'rsatish usullariga aytiladi. Psixologik tadqiqotlarda shu narsa aniqlanganki, axloqiy tushunchalarni o'zlashtirish juda murakkab jarayon bo'lib, unga maxsus raxbarlik qilishi talab etiladi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun quyidagilarga amal qilish kerak: Ishontirish tarbiya metodi: O'quvchilar axloqini, dunyoqarashini shakllantirishda asosiy metodlardan biri hisoblanadi. Ishontirish orqali o'qituvchi o'quvchilarda har tomonlama kompleks tarbiyani amalga oshiradi. Ijobiy shaxsiy namuna tarbiya metodi: Shaxsning rivojlanishida turli ta'sirlar, o'quv jarayoni va boshqa vositalardan tashqari tarbiyaning shaxsiy na'munasi katta ahamiyatga ega. Bolalar balog'at yoshiga yetib, mustaqil hayotni boshlagunlariga qadar ko'pchilik sharoitlarda bilish, o'rganish jarayonlarida asosan o'quvchiga otaona, qo'ni-qo'shniga, doston, drama qahramonlariga taqlid qilishadi. Mashq tarbiya metodi: Bunda o'quvchi ma'lum bir faoliyat bo'yicha biron-bir vaziyatda ayrim harakatni takroran bajaradi. Mashq harakatlarini takrorlash bo'lib, axloqiy ko'nikma, malaka va odat hosil qilish maqsadida o'quvchilarning maxsus uyushtirgan faoliyatidir.

Rag'batlantirish va jazolash tarbiya metodi: Intizomlilikni shakllantirishning klassik metodlaridan biri rag'batlantirish va jazolash metodi hisoblanadi. Tarbiyadagi rag'batlantirish va

jazolash metodi o'quvchilardagi ijobiy hislatlarini rivojlantirishdagi ularning ijobiy fazilatlarini takomillashtirishda vosita bo'lmog'i lozim.

Shuningdek, tarbiyaning aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, estetik tabiya, jinsiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, ekologik tarbiya, huquqiy tarbiya kabi turlari mavjud.

Kishilik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti tarixidan ma'lumki, bola shaxsining kamoloti oilada shakllanadi. Oila — jamiyat hayotining kichik bir debochasi bo'lib, har tomonlama sog'lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun ma'sul bo'lgan g'oyat muhim tarbiya o'chog'idir. Oiladagi ma'naviy-ruxiy muhit, bola tarbiyasida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lib, oila a'zolarining turmush tarzi ko'p hollarda farzandlarning ruhiy kayfiyati, tasavvuri va xislatlarini belgilab beradi. Demak oila sog'lom, barkamol insonni tarbiyalab voyaga etkazishda jamiyat oldida mas'uldir.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik faoliyatning tuzilishi, o'qituvchining o'ziga xosligi faqatgina uning har tomonlama pedagogik faoliyatidagi fazilatlarga bog'liq. Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida shu davr talabiga munosib bo'lgan yoshlarni tarbiyalash muammosi dolzarb ahamiyatga molik bo'lib kelgan. Tarbiyali insonlar esa jamiyat hayotida zarur bo'lgan kerakli sifatlarni o'zida mujassamlashtirganlar hisoblanadi. Inson shaxsining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi omil sifatida inson orttirgan tajribalarining tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishidir. Bundan ko'rinadiki, inson shaxsi juda murakkab psixologik kategoriya bo'lib, u kishining individual hayoti davomida ma'lum omillarning ta'siri ostida sekin-asta tarkib topadi. Oilada bola tarbiyasining milliy o'ziga xos qoidalari mavjud bo'lib, ota-onalar ulardan o'rinli foydalanishlari lozim. Oilada ma'naviy-ruhiy hotirjamlik, o'zaro totuvlik xukmron bo'lsa, oila a'zolari bir-birlariga g'amxo'r bo'lsalar, bola tarbiyasining tayanch nuqtasini topa olsalar, bunday muhit bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi va ular farzandlariga haqiqiy baxt hadya etadilar, bu bilan ishimizda rivojlanish, jamiyatimizda olg'a siljish bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. E.G'oziyev "Umumiy psixologiya" T-2018
2. G.A. Sultonova "Pedagogik mahorat" T-2005
3. E.G'oziyev "Pedagogik psixologiya asoslari" T-1997
4. Yosh va pedagogik psixologiyadan praktikum. T-19
5. www.pedagog.uz

MILLIY O'QUV DASTURINING YARATILISHI VA UNING AFZALLIKLAR

T.Avazov, Jizzax VPYaMO'MM katta o'qituvchisi

Annotasiya. Ushbu maqolada milliy o'quv dasturining yaratilishiva uning afzalliklari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Axborot, texnologiya, kompyuter, multimedia, modellashtirish, animatsiya, kommunikatsiya, texnik vositalar, pedagogic texnologiya.

Аннотация. В данной статье рассматривается создание национальной учебной программы и ее преимущества.

Ключевые слова: Информация, технология, компьютер, мультимедиа, моделирование, анимация, общение, технические средства, педагогическая технология.

Annotation. This article discusses the creation of a national curriculum and its benefits.

Key words: Information, technology, computer, multimedia, modeling, animation, communication, technical tools, pedagogical technology.

Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 2025-yilgacha O'zbekiston sanoatining rivojlanishi konsepsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy majlisgamaro'jatnomasida

INNOVATSION PEDAGOGIK TA'LIM TEXNOLOGIYA USULLARINING TA'LIM JARAYONIDAGI AFZALLIGI

Ochilova Sevara

Psi-24/2 guruh talabasi

Ilmiy maslahatchi: ChDPU Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Umarova Sh.A.

Annotatsiya.. Ushbu maqola fanni o'zlashtirish jarayonida talabalarning faolligini oshirishga qaratilgan va eng yangi uslubiyatga asoslangan o'quv materialini maxsus dasturiy ta'minot va multimediya informatsion texnologiyalar yordamida ta'lim berish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: yangi texnologiyalar, maxsus dasturiy ta'minot, globallashuv, dasturiy vosita, kompyuter sinflari, integratsiyalashgan ta'lim.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek **“Taraqqiyotga erishish** uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi” [1].

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohasining mavjud taraqqiyoti zamonaviy jamiyat qiyofasini belgilab bermoqda. Zamonaviy jamiyatning eng muhim xarakterli jihati uning barcha sohalarida globallashuvning ko'zga tashlanayotganligidir. Globallashuv o'z-o'zidan tezkor harakatlanish, zarur axborotlarni zudlik bilan qo'lga kiritish, ularni qayta ishlash va amaliyotga samarali tatbiq qilishni taqozo etadi. Bu tarzda harakatlanish imkoniyatiga o'z sohasining bilimdoni bo'lgan, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay olgan, boy tajriba va mahoratga ega kadrlargina ega bo'ladilar.^[5] Shunday ekan, oliy ta'lim muassasalarida kadrlarni tayyorlash jarayonida davrning mazkur talabini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar ta'lim sohasida ham ma'lum yangiliklar, tubdan o'zgarishlar bo'lishini taqozo etadi. Haqiqatdan ham, chuqur bilimli, keng dunyoqarashli komil shaxsni tarbiyalash masalasi pedagoglardan yangicha ishlash prinsiplarini amalga oshirishni talab qiladi va katta ma'suliyat yuklaydi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi ham ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir. Dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan, uddaburon, ishning ko'zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va mas'uliyatli vazifadir.

Agar rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimi oldida yana bilimlarni kashf eta oladigan mutaxassislarni tarbiyalash birinchi vazifa bo'lsa, iqtisodiyoti o'tish yoki rivojlanish davrida bo'lgan mamlakatlarda esa yangi texnologiyalarni o'zlashtirilishini ta'minlovchi mutaxassislar tayyorlash vazifasi qo'yilmoqda. Dunyoning barcha davlatlarida ta'lim tizimining samaradorligini oshirish strategik vazifalar qatoriga qo'yilgan. Muayyan o'quv fanini samarali o'qitish maqsadida yaratilgan xamda ushbu fanni o'zlashtirish jarayonida talabalarning faolligini oshirishga qaratilgan eng yangi uslubiyatga asoslangan o'quv materialini maxsus dasturiy ta'minot va multimediya informatsion texnologiyalar yordamida didaktik ishlab chiqarish natijasida yaratilgan o'quv jarayonini tashkil etuvchi ko'p funksiyali dasturiy vosita - *innovatsion dasturiy didaktik majmua* deb ataladi.^[2] Fanning innovatsion dasturiy didaktik majmuasi uslubiy tizim sifatida didaktik

materiallarning mukammalligi va yaxlitligini ta'minlaydi. Har bir innovatsion dasturiy didaktik majmuada yangi o'quv materialini o'rganish, mustahkamlash va o'zlashtirish darajasini nazorat qilish nazarda tutiladi. O'z vaqtida innovatsion majmualarni yaratishdan maqsad yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatgichlarni oshirishdir. Bu maqsadlarga erishish uchun avvalo yangi mavzularni o'tishda an'anaviy bayon-nomoyish uslubi o'rniga talabalar faolligini oshirishga yo'naltirilgan tamayillarga asoslanish kerak. O'quv materiallarining elektron shakllarini yaratishga an'anaviy-didaktik ishlanmalarni yaratishga nisbatan maxsus didaktik yondashuvlarning qo'llanishini talab etadi. Innovatsion dasturiy didaktik majmua barcha turdagi o'quv mashg'ulotlarida kompyuter dasturlarining qo'llanishlarini ta'minlaydi. Keng ma'noda muhokama etilayotgan majmualar talabalarni informatsion texnologiyalardan foydalanishga ehtiyoj va moyillikni shakllantiradi. Bilim mohiyati samaradorligi ko'p jihatdan foydalanayotgan o'quv vositasining xususiyatlariga bog'lik. Bundan tashqari yangi informatsion texnologiyalarning qo'llanishi faqatgina amaliy o'zlashtirish jarayonidagi ifoda etishni talab etmoqda. SHuning uchun yangi pedagogik vosita sifatida qo'llanilayotgan turli shakllardagi elektron o'quv materiallarni o'quv jarayonida ularning didaktik xossalari va integratsiya usullarni tahlil qilish zaruriyati paydo bo'ladi. Bunday tahlil ijodiy va o'zaro talabchanlik asosida olib borilishi kerak. *Fanning innovatsion dasturiy didaktik majmuasi quyidagilardan iborat:*

1) Fanga oid an'anaviy o'quv-uslubiy kompleks. DTS dagi majburiy bilim va ko'nikmalar majmuasi, namunaviy dastur, texnologik karta, ishchi o'quv dastur va h.k

2) Innovatsion komponent. Talabalar faolligini oshirishga yo'naltirilgan va amaliyotda o'zining samaradorligini tasdiqlangan uslubiy tamoyillar. Ularga mos didaktik materiallar, ko'rgazmali vositalar va dasturiy ta'minot, mustaqil mashg'ulotlar bo'yicha didaktik vazifalar fan bo'yicha kompyuter amaliyoti, fan bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlar sifatini aniqlovchi test vazifalari to'plami, o'quv jarayonining sifatini ko'rsatuvchi monitoring.

3) Elektron shakldagi o'quv uslubiy materiallar. Elektron darslik, elektron o'quv qo'llanmalar, elektron ma'ruza matnlari, elektron kutubxonalar, interfaol o'quv darslari, kompyuterda hisoblash tajribasini o'tkazish uchun amaliy vazifalar, test sinovini o'tkazish bo'yicha tizimlar.

4) Innovatsion dasturiy didaktik majmuaning ashyoviy ba'zasi-kompyuter sinflari, kompyuterlashgan laboratoriyalar, WEB -serverlar, internet mediatenalar.

O'qitish texnologiyalari fanning, ishlab chiqarish hamda o'quv pedagogik jarayon orasida joylashib, kasbiy didaktik tayyorgarlik tizimidagi bilimlarning mustaqil sohasi bo'lib, u o'qitish, didaktika nazariyasi va amaliyoti bilan uzviy bog'langan.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash mumkinki, darslarni elektron vositalar orqali tashkil etilishi talabalar e'tiborini an'anaviy darslarga nisbatan ko'prok jalb etadi. Chunki xar bir dars kichik senariylar asosida tashkil etilib, unda asosiy rollar talabalar va o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Mutaxassisga bo'lgan har tomonlama talabni qanoatlantirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalari pedagog va talabaning hamkorligiga, psixologik – pedagogik shart sharoitlarni amalga oshirishga imkon beradi.^[3]

SHuningdek, mashg'ulotlarni ushbu noan'anaviy usullardan foydalanib olib borish orqali pedagog va talabalar o'rtasidagi to'siqning yo'qolishini, talabalarning ijodkorligi va kuzatuvchanligini rivojlanishini ta'minlash bilan birga, yuksak umumiy va kasbiy madaniyatli, ijodkor, ijtimoiy faol, mustaqil fikrli, istiqbolli vazifalarni belgilay oladigan va hal eta olish malakasiga ega bo'lgan barkamol shaxs sifatida shakllanishiga erisha olamiz. Mazkur texnologiyalarni integratsiyalashgan ta'lim jarayonida qo'llash ta'lim jarayonini yanada mukammal, qiziqarli, mazmunli bo'lishida va talabaning, mustaqil, tanqidiy hamda ijodiy fikrlash qobiliyatini o'z individualligini, o'z-o'zini baholash, muayyan maqsad va o'zini namayish etishga bo'lgan intilishida katta ahamiyat kasb etadi.^[5]

Kasbga o'qitish texnologiyasi esa shaxsni intizom, iroda va ixtisoslikka bo'lgan qiziqishini yuzaga keltiradi. Bu sifatlarning ta'lim jarayonida qanchalik rivojlanishi o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq bo'lib, bu-talabaning yuksak umumiy va kasbiy madaniyatli, ijodkor, ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovli, istiqbolli vazifalarni belgilay oladigan va hal eta olish malakasiga ega bo'lgan barkamol shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. SHuni unitmaslik kerakki, agar

innovatsion ta'lim jarayonlari talabalarda faol xarakat, bilim va ko'nikmalar o'rttirish ishtiyoqini uyg'otsagina, bu jarayon samarali kechadi va sifatli natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.
2. Ziyomuxammedov B.g. Abdullaeva SH. Ilgor pedagogik texnologiya. T., Abu Ali ibn Sino, 2001y.
3. Matchonova Muxabbat Botirovna. "Ta'limda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish". Ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish muammolari. Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjumanining materiallari to'plami—Jizzax: JizPI, 2 noyabr 2020 yil. 1-tom. 11-bet.
4. D.N.Axatova Dars o'tishda YAPT usullaridan foydalanish. T.2004y.
5. Farberman B.L, Musina R.G, Jumaboeva F.A. Oliy uquv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. O'quv-uslubiy qo'llanma. T., 2002y.

MAKTAB ADABIYOT DARSLARIDA MUMTOZ ADABIY MATNLARDAGI MORFEMALARNING ANGLATGAN MA'NOLARINI O'QUVCHILARGA TUSHUNTIRISH

H.R.Nabiyev

JVPXYAPO MM katta o'qituvchisi

Ibragimova Zebiniso

Sh.Rashidov tumani 2- sonli kasb hunar maktabi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Mazkur maqolada maktab adabiyot kursida o'quvchilarga mumtoz adabiy matnlarda uchrovchi morfemalarning o'zbek tiliga tabdilini hamda ularning anglatgan ma'nosini o'quvchilarga tushuntirish yo'llari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: *mumtoz adabiy matn, leksik xususiyat, grammatik xususiyat, morfemik sath, affiksoid, inversiya, izofa.*

In article analysed ways of the explanation of the morpheme classical literary text and are given methodical recommendations.

Key words: *classical literary text, lexical particularity, grammatical particularity, morfemical surface, affiksoid, inversion, article.*

В статье анализируются способов объяснения морфемы классических литературных текста и даются методические рекомендации.

Ключевые слова: *классический литературный текст, лексическая особенность, грамматическая особенность, морфемическая поверхность, аффиксoid, инверсия, артикл.*

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim dasturida adabiyot fani 5-sinfdan boshlab o'rganiladi. Xuddi shu sinf bosqichidan boshlab adabiyot dasturida mumtoz asarlardan namunalar o'rganib boriladi. Keyingi bosqichlarda beriladigan mumtoz adabiyot namunolari soni va hajmi kengayib boradi. Sababi, o'zbek milliy adabiyotining juda katta qismini mumtoz adabiyot tashkil etadi.

Maktab adabiyot kursida "Mumtoz asarlarni tushunish, tahlil qilish nafaqat o'quvchiga, balki o'qituvchiga ham qiyinchilik tug'dirishi hech kimga sir emas." [5. 4] Ana o'sha murakkablik tug'diradigan omillardan biri – uning til xususiyatlarini anglashdir. Til bilan bog'liq qiyinchiliklar asosan leksik, grammatik hamda morfemik sath bilan bog'liqdir. Agar o'quvchi o'rganilayotgan matnda bildirilgan fikrni tushunmasa, undagi jozibani, badiiyatni, muallifning mahoratini anglay olmaydi. O'quvchi uchun til to'sig'ini yengish matnga kirish, ijodkorning badiiy olamiga dastlabki qadam demakdir.

Asarlarning leksik xususiyatlari ustida ishlash adabiyot darslarining muhim bosqichi sanaladi. Buni hamisha e'tibordan soqit qilmagan holda adabiyot muallimi har doim dars mashg'ulotlarining

MUNDARIJA

Ilg'or xorijiy tajribalar asosida pedagog kadrlarning uzluksiz malakasini oshirish jarayonlari <i>A.Sh.Xolmurodov</i>	6
Многолетняя динамика изменения морфометрических характеристик в аральском море по мере его высыхания в зависимости от влияния естественных и антропогенных <i>факторов</i> <i>А.М. Гареев, С. Н. Азимова, Д.С. Суюнов</i>	8
Булажак укутувчиларни тайёрлашда хамкорлик сртатегияларидан фойдаланиш имкониятлари <i>Сафарова Рохат Гайбуллаевна</i>	13
Специфика проектирования диагностического проекта: отношение между языком и теорией разума билингвальных детей в полилингвальной среде <i>Кучуков Христо, Ушакова Оксана Семеновна, Яшина Валентина Ивановна, Шабаева Гузель Фагимовна</i>	16
WSN with Internet of Things (IoT) For Tracking Animals <i>Tanveer Baig Z</i>	18
Непрерывное образование будущих педагогов <i>Дүйшеев Женипбек Аманисакович, Мамадалиева Клара Акимовна</i>	23
Профессиональная компетентность педагогов во взаимодействии с родителями воспитанников <i>Пилипенко Елена Алесандровна</i>	27
The philosophy of “empty” in the novel “chapaev and emptiness <i>Adiba Kasimova Begalievna</i>	29
Инновационная подготовка обучающихся на базе технопарка, мастерской профессионального мастерства и центра развития компетенций «акмуллинская академия развития детей и семейного образования соты» в поликультурной и полилингвальной среде <i>Шабаева Гузель Фагимовна</i>	33
Готовность студентов будущих учителей к исследовательской деятельности <i>Р.Х.Джураев</i>	37
Поурочные разработки по химии <i>Ражабова Мавжуда Нуриллаевна</i>	41
Hayotiy muammolarni hal qilishda talabalarga xos koping strategiyalar <i>Bekchanov Xusinboy Karimberganovich</i>	50
Maktabgacha ta'limni samarali tashkil etishda steam texnologiyasining ahamiyati <i>Mamanabiyeva Malikaxon Axunjanovna</i>	53
O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni takomillashtirish <i>Jabborov Abdug'ani</i>	56
Maktab o'quvchilarni amaliy-tasviriy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi <i>Pardaev B.A</i>	60
Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari <i>Karimova Gulchexra Isakovna</i>	62
O'quvchilar savodxonligini oshirishda timss topshiriqlaridan foydalanish <i>Jabbarova Zuhra Omondullayevna</i>	64
Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari <i>Jabbarova Zuhra Omondullayevna</i>	66
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik tarbiya berishda fanlararo aloqadorlikning dolzarbligi <i>N.Ergasheva</i>	69
Zamonaviy o'qitvchi-kelajak yaratuvchisi <i>N.E.Ergasheva</i>	72
Boshlang'ich ta'lim integratsiyon darslar orqali o'quvchilarni rivojlantirish <i>Jabbarova Zuhra Omondullayevna</i>	74

<i>Нуртаев Уринбай, Мансурова Мафтуна</i>	
Teaching drawing to young creative students through graphic programs and forming their artistic thinking	
<i>Abdumajitov Avazjon Shuhrat o'gli</i>	517
Chizmachilik fanlarini o'qitishda didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarning idrok qilish faoliyatini faollashtirish.	
<i>Jumayev Isroil Omandovlat o'g'li</i>	519
Tarix fanini o'qitishda ishchi daftarlardan foydalanish	
<i>Eshbekova Dilafro'z To'ychiyevna</i>	522
Ta'lim tizimida qo'llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar	
<i>Nizomova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Shohida Absalomovna</i>	525
Ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish	
<i>Nizomova Nodira Sadikjonovna</i>	527
Iqtidorli yoshlar bilan ishlash, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va kasb-hunarga yo'naltirish tizimini takomillashtirishda kutubxonachilarning roli	
<i>Musaqulova Laylo, Umarova Shohida Absalomovna</i>	528
Ta'lim va tarbiya jarayonining psixologik asoslari	
<i>Pardaboyeva Madina Farxod qizi, Umarova Shohida Absalomovna</i>	531
Milliy o'quv dasturining yaratilishi va uning afzalliklar	
<i>T.Avazov</i>	534
Innovatsion pedagogik ta'lim texnologiya usullarining ta'lim jarayonidagi afzalligi	
<i>Ochilova Sevara, Umarova Shohida Absalomovna</i>	537
Maktab adabiyot darslarida mumtoz adabiy matnlardagi morfemalarning anglatgan ma'nolarini o'quvchilarga tushuntirish	
<i>H.R.Nabiyev, Ibragimova Zebiniso</i>	539
Bulutli texnologiyalardan foydalanish	
<i>T.Sh.Avazov</i>	543
Boshlang'ich sinflarda ta'limiy-didaktik o'yinlardan foydalanish	
<i>Jansaitova J.B.</i>	548
Л.А.Зиминнинг археологик изланишлари ва уларнинг натижалари	
<i>Жамол Юлдашев</i>	550
В.А.Шишкиннинг тадқиқотлари: Варахшада олиб борилган изланишлар ва унинг илмий натижалари	
<i>Жамол Юлдашев</i>	555
Бошланғич синф ўқувчиларида ахлокий ғазилатларни шакллантиришнинг амалий тизими	
<i>Маматова Азиза Махаматджонова</i>	564
Inklyuziv ta'lim jarayoniga ilmiy pedagogik yondashuv	
<i>Sh.X.Kabilova</i>	566
Мотивированные люди для удовлетворения собственных потребностей	
<i>Ахмаджонов Д.У., Султанова Ю. Р, Песоцкий М. В., Абдусаматова Ш.А.</i>	569
Развитие интеллектуального творческого потенциала студентов	
<i>Кувшинова А. А, Рыбалкина Н. К., Тургунова Ю. Ш. Абдусаматова Ш.А.</i>	572
Значимость коммуникации в семье как основная социальная система развития и социализация ребенка	
<i>Исмаилова Г. Р., Бахтибекова Ж. М., Казаков Д.И. Абдусаматова Ш.А.</i>	575
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishda mustaqil ta'lim faoliyatining o'rni	
<i>Qur'anboyeva Muxarram Shavkat qizi</i>	579
Научные этапы - предмета "методика преподавания математики"	
<i>Султанмурод Саитганиевич Имомбердиев</i>	580